

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO OZIQ-OVQAT VA YENGIL SANOAT TEXNOLOGIYASI
INSTITUTI**

"MARKETING" KAFEDRASI

**Noiqtisodiy yo`nalishidagi talabalar uchun "Tarmoq iqtisodi" fanidan amaliy
mashg'ulotlarni bajarish uchun**

U S L U B I Y K O`R S A T M A

BUXORO 2008

"Marketing" kafedrasining 13.01.08 da 7 sonli majlis bayonida tasdiqlangan.

Institut _____sonli uslubiy kengashida tasdiqlangan

Tuzuvchi:

kat.o`qit. Usmanova N.Yu.

"Marketing" kafedrasi katta o`qituvchisi

Taqrizchilar:

Ulashev X.A.

Buxoro OO va ESTI "Menejment"
kafedrasi dotsenti, i.f.n.

Xamraev X.R.

Bux DU "Iqtisodiyot nazariyasi"
kafedrasi dotsenti i.f.n.

K I R I S H

«Tarmoq iqtisodi» fani bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma yengil sanoat mutaxassisliklari uchun mo'ljallangan.

Uslubiy ko'rsatmani tayyorlashdan asosiy maqsad bo'lajak mutaxassislarni iqtisodning ob'ektiv qonunlari bilan qurollantirish, ulardan korxonada to'g'ri foydalanish, ularni amaliyotda qo'llanish forma va uslublari bilan tanishtirishdir.

Amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatma funktsional iqtisodiy fanlarning o'rganish asosi hisoblanadi (rejalashtirish, tashkil etish, boshqarish).

«Tarmoq iqtisodi» fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarishni boshlashdan oldin talaba fanning nazariy qismini o'qish, o'rganish, mavzuga oid formulalar bilan tanishishi, undan so'ng amaliy mashg'ulotdagi masalalarni echishga kirishishi lozim.

O'qituvchi boshchiligidagi anchagina murakkab masalalarni echish fanni yanada puxtaroq o'rganishga, to'g'ri echimlar qabul qilishga yordam beradi.

«Tarmoq iqtisodi» fanidan amaliy mashg'ulotlarni bajarish bo'yicha uslubiy ko'rsatmada talaba investitsiya jarayoni, baholar, ishlab chiqarish samaradorligi, mehnat unumdorligi; korxonada ish haqi, asosiy aktivlar, aylanma aktivlar, tarmoq moliyaviy resurslari, mahsulot tannarxi, foyda, rentabellik, buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil, audit bo'yicha amaliy hisoblarni bajarish yangiliklarini o'zlashtirish imkonini beradi.

AMALIY MASHG'ULOT № 1
MAVZU: TARMOQDA INVESTITSIIYA JARAYONI.

Investitsiyalar yoki kapital qo'yilmalar - bu hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapital. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida ko'ra, u yangi korxonalar qurishga, o'zoq muddatli xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbob uskunalarga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir. Investitsiyalar xususiy sektor va davlat tomonidan mamlakat ichkarisida va uning tashqarisida turli ishlab chiqarishlarga va qimmatbaho qog'ozlar (aktsiyalar, obligatsiyalar) qo'yilishi mumkin.

Investitsiya ikki turga bo'linadi. Birinchisi – mablag' 'ni to'g'ridan-tug'ri investitsiyalash, ya'ni uni korxona ishiga kapital sifatida ko'yish. Ikkinchisi - mablag'ni korxonalar aktsiyalarini sotib olishga sarflash bo'lib, portfel' investitsiyalar deb ataladi.

Investitsiyalash muqobil tanlov foydasiga asoslanadi, ya'ni investitsiyalashning eng naflisi, serfoidalisi tanlab olinadi.

Investitsiyaga bo'lgan xarajatning miqdori ikki omilga bog'liq:
Birinchisi sof foydaning kutilayotgan me'yori, qaysiki uni tadbirkorlar investitsiyada ketgan xarajatlardan olishni mo'ljallaydi: ikkinchisi - foiz stavkasi yoki tadbirkorlar kapitalni sotib olishga zarur bo'lgan pulga ega bo'lishi uchun to'lashi lozim bo'lgan baho.

Masala № 1

Agar normal investitsiya 4 yilda 20 milliarddan 26 milliard so'mga yetkazilsa va shu vaqtda narx 1,2 marta o'sgan bo'lsa, real investitsiya qiymatini aniqlang.

Berilgan:

P_i (nominal investitsiya) -20-26 mlrd.

V_i (narx indeksi) -1,2 marta

P_r - ?

Masala № 2

Vaqt omilini hisobga olgan holda loyixalar iqtisodiy rentabelligini hisoblash.

Masala №3

Agar korxona yillik 10 % daromad olishni mo'ljallab 200 ming so'mni investitsiyalangan bo'lsa, bir yildan so'ng qancha mablag'ga ega bo'ladi ?

TESTLAR

1. Investitsiya sifatida quyidagi ishlatiladi:

- A) Pul
- B) Qimmatbaho qog'ozlar (aktsiya, obligatsiya, sertifikat, veksel')
- V) Yer, bino, inshoot
- G) Texnikaviy yangiliklar, ilmiy kashfiyotlar

D) Noto'g'ri javob yo'q.

2. Investitsiya samaradorligini oshirish uchun quyidagi talab qilinadi:

A) Investitsiya keltiradigan foyda bank beradigan foizdan yuqori bo'lishi kerak.

B) Investitsiya keltiradigan foyda bank beradigan foizdan past bo'lishi kerak.

V) Investitsiyadan keladigan foyda inflyatsiya darajasidan past bo'lishi kerak.

G) Noto'g'ri javob yo'q.

3. Investitsiya bu:

A) Yangi korxonalar qurilishiga ketgan xarajatlar

B) Asbob uskunalarni sotib olishga ketgan xarajatlar

V) Kapitalni barpo etishga ketgan xarajatlar

G) Noto'g'ri javob yo'q.

4. Investitsion kompleks elementlari:

A) Investitsiya siyosati, investitsiya faoliyati, investitsiya iqlimi.

B) Investitsiya xarajatlari, investitsiya ko'lami.

V) Investitsiya ob'ektlari, investitsiya sub'ektlari.

G) Noto'g'ri javob yo'q.

AMALIY MASHG'ULOT № 2

MAVZU: TARMOQ MAXSULOTIGA BAHO BELGILASH.

Baho - tovar va xizmat qiymatining puldagi ifodasidir. Baho bozorda talab va taklif muvozanatini o'rganish omili va ularni rag'batlantirish vositasi sifatida xizmat qiladi.

Baho siyosati odatda quyidagi maqsadlarni ko'zda tutadi:

A) rentabellikni oshirish

B) bozordagi ulushni oshirish

V) raqobatga moslashish

G) foydani ko'paytirish.

Tovarlar maxsulotlar va xizmatlar baholarining korxona raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradigan sakkizta turi bor:

- sirpanib, pasayib boruvchi baho, taklif va talab nisbatiga qarab belgilanadi va bozor to'lib borgan sayin pasayib boradi;

- shartnoma asosidagi baho;

- bozor iste'mol segmentining bahosi;

- bozordagi taklif va talab nisbatining o'zgarishga javoban tez qaror topadigan elastik baho;

- imtiyozli baho, bunda korxona o'z buyumlarining bahosini ma'lum darajada pasaytiradi, lekin bu korxona bozorda ustun holatni egallab turgan va maxsulotni realizatsiya qilishdagi sarflarni kamaytirish hisobiga ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirishni ta'minlay oladigan bo'lishi kerak;

- ishlab chiqarishdan olib tashlangan, ortiq chiqarilmaydigan buyumlar bahosi;
- bozordagi ko'pchilik firmalarga qaraganda bir muncha past qilib belgilanadigan baho.

Korxonaning maxsuloti yoki resurslariga baho qo'yishda baho belgilashning quyidagi turlarini hisobga olish zarur:

- baholarni erkin belgilash;
- shartnoma-bitimlar asosida baho belgilash;
- davlat mahalliy boshqaruv idoralarining bevosita nazorati ostida baho belgilash, bunda baholar qat'iy qilib qo'yiladi, cheklanadi, subsidiyalar beriladi, aktsizlar qo'llaniladi va hokazo.

Bozor iqtisodiyotida baho belgilash, birinchidan Xaridor bilan sotuvchi o'rtasidagi tuziladigan oldi-sotdi shartnomasi vositasida yetarlicha erkin baho qo'yish yo'li bilan, ikkinchidan, bozordagi haridorlar bilan sotuvchilar mayllarining erkinligini ta'minlovchi raqobatli bozor muhiti sharoitlarida, uchinchidan, talab bilan taklifning muvozanat baholari vositasida muvozanat holiga kelish asosida amalga oshiriladi.

Masala № 1

Joriy yildagi bozor savatining bahosi shu yilning narxlarida 120 mlrd. so'm, joriy yildagi bozor savatining bahosi bazis yili narxlarida 50 mlrd. so'm bo'lsa, joriy yil deflyatori aniqlansin.

Masala № 2

Fabrikada 7500 metr mato ishlab chiqarish uchun 280 mln. so'm sarflangan. Ishlab chiqarilgan matoning 1 metri fabrika uchun necha so'mdan tushgan.

Masala № 3

Korxonada yil davomida maxsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan. Bunda maxsulot tannarxi 7500 so'mni, tarmoq foydasi 3975 so'mni, tarmoqda ishlov berish qiymati 1890 so'mni, maxsulotga ishlov berish qiymati 2340 so'mni tashkil qilgan. SHu korxonada konkret buyumni bahosi hisoblansin.

Masala № 4

Ishlab chiqaruvchi firma, ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi firma, chakana savdo firmasi, Xaridor tizimida quyidagilar ma'lum bo'lsin: bitta maxsulotni ishlab chiqarishga ketgan xarajat 5000 so'm, ulgurji savdo xarajatlari 1000 so'm, chakana savdo xarajatlari 1500 so'm. Taqsimlash kanali har bir qatnashchisi foydasi maxsulot tannarxining 20 % ga teng. Xaridor maxsulotni qanday narxda sotib oladi.

Masala № 5

Ishlab chiqaruvchi korxona, ulgurji savdo bilan shug'ullanuvchi korxona, chakana savdo korxonasi xaridor tizimida quyidagilar ma'lum bo'lsin: maxsulot tannarxi 10000 so'm, ulgurji savdo xarajatlari 1000 so'm, chakana savdo xarajatlari 2000 so'm, Taqsimlash kanalining har bir

qatnashchisi foydasi maxsulot tannarxining 15 % ga teng. Xaridor maxsulotni qanday narxda sotib oladi ?

Masala № 6

Korxona bir tur maxsulotdan 50 dona, ikkinchi tur maxsulotdan esa 100 dona sotsa, 501000 so'm daromad qiladi. Agar birinchi turdan 80 dona, ikkinchi turdan 90 dona sotganda 780000 so'm daromad qilgan bo'lar edi. Xar bir maxsulotning narxini toping.

TESTLAR

1. Quyidagilarning qaysi biri korxona raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradigan tovarlar va xizmatlar bahosiga kiradi:

- A) Sirpanib, pasayib boruvchi baho
- B) Ishlab chiqarishdan olib tashlangan
- V) Imtiyozli baho
- G) SHartnoma asosidagi baho
- D) Noto'g'ri javob yo'q.

2. Korxonaning maxsuloti va resurslariga baho qo'yishda quyida keltirilganlarning qaysini hisobga olish zarur:

- A) Baholarni erkin belgilash
- B) SHartnoma-bitimlar asosida baho belgilash
- V) Davlat yoki mahalliy boshqaruv idoralarining bevosita nazorati ostida baho belgilash
- G) Noto'g'ri javob yo'q.

3. Quyida keltirilganlarning qaysi biri bahoning shakllanishiga ta'sir qiladi:

- A) Talab omillari
- B) Xarajat omillari
- V) Raqobat omillari
- G) Noto'g'ri javob yo'q.

AMALIY MASHG'ULOT № 3

MAVZU: TARMOQDA ILMIY-TEXNIKA TARAQQIYOTI MAZMUNI VA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA UNING AHAMIYATI.

Fan- texnika taraqqiyoti mehnat qurollarini va texnologik jarayonlarni uzluksiz takomillashtirish, xom ashyo hamda quvvatlarning yangi turlarini yaratish, ishlab chiqarishni tashkil etish darajasini uzluksiz takomillashtirish demakdir. Fan-texnika taraqqiyoti ijtimoiy mehnatni tejashga, uning maxsulot birligiga sarflanadigan buyumlashtirilgan hamda jonli mehnat salmog'ini kamaytirish evaziga erishiladi. Fan-texnika taraqqiyoti aqliy va jismoniy mehnat,

shahar va qishloq o'rtasidagi mavjud tafovutlarni bartaraf etish manbaidir. Yangi-texnika mehnat yaxshilash va osonlashlashtirish, og'ir jismoniy va malakasiz mehnat salmog'ini kamaytirish imkoniyatini yaratadi.

Fan - texnika taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari - elektrlashtirish va avtomatlashtirishga asoslangan murakkab texnikani boshqarish bilan bog'liq bo'lgan yuqori malakali mehnatni talab etadi. Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish, uni boshqaruvchilardan injener-texnik darajasidagi bilim hamda yuqori saviyali e'tiborni talab etadi.

Yengil sanoatda texnikani takomillashtirish va o'zlashtirish, rejali ravishda olib boriladi va quyidagi tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi:

- ishlab chiqarish jarayonlarni mexanizatsiyalash, avtomatlashtirish va ilg'or texnologiyani o'zlashtirish;
- Yangi mashinalar, mexanizmlar, stanoklar, asboblari, materiallar, maxsulotlarning yangi turlarini kashf etish, uni o'zlashtirish va ishlab chiqarish;
- muhim fan - texnika va sinash ishlari;
- yangi texnikani yuksaltirish va o'zlashtirish rejali topshiriqlarining bajarilishini ta'minlash uchun kerakli materiallar, uskunalari, apparatlar va asboblarga ehtiyojni aniqlash va qondirish;
- ishlab chiqarishni cheklanadigan va yangilarga almashtiriladigan mashinalar, stanoklar, mexanizmlar, apparatlar va asboblarni aniqlash;
- foydalanayotgan stanoklarni shaklan takomillashtirish;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish.

Kapital qo'yilmalarning iqtisodiy samaradorligi umumiy va taqqoslanadigan ko'rsatkichlar asosida hisoblanadi.

Kapital qo'yilmalarning umumiy (absolyut) samaradorligi har bir so'm kapital qo'yilma hisobiga milliy daromadning o'sish bo'yicha ifodalanadi. Bu samaradorlik ko'rsatkichi xalq xo'jaligini boshqarish tarkibiga ko'ra quyidagi yo'llar bilan aniqlanadi:

A) xalq xujaligi va uning tarmoqlari bo'yicha (Sk_1) - yil davomida erishilgan milliy daromad (D) yoki sof maxsulotning o'sish miqdorini kapital qo'yimalarga (K) ga nisbati:

$$S_{k1} = \frac{D}{K};$$

B) Sanoat tarmoqlari, ayrim texnikaviy iqtisodiy muammolar bo'yicha (Sk_2) - yillik sof maxsulotning o'sish miqdori (s_m) kapital qo'yimalarga nisbati:

$$S_{k2} = \frac{s_m}{K}$$

Hisoblash jarayonida Sk_2 ni tarmoq bo'yicha qabul qilingan umumiy (absolyut) samaradorlik normativi bilan taqqoslanishi kerak.

V) Ishlab chiqarish turlari, ministrlilar, korxonalar hamda ishlab chiqarish kompleks programmalari bo'yicha samaradorlik (Sk3)- yillik sof (normativ) maxsulotning o'sish miqdorini kapital qo'yilmalariga nisbati bilan aniqlanadi:

$$S_{k3} = \frac{S_m(n)}{K}$$

G) xo'jalik - hisobot ishlab chiqarishlar, korxonalar bo'yicha samaradorlik (Sk4) - kapital qo'yilmalarning har bir so'mi hisobiga olingan foydaning o'sishi (F) bilan aniqlanadi:

$$S_{k4} = \frac{F}{K}$$

Rentabellik ko'rsatkichi qanchalik yuqori bo'lsa, kapital qo'yimlardan shuncha samaraliroq foydalaniladi.

Nisbiy samaradorlik quyida keltirilgan xarajatlar formulasi bilan topiladi:

$$T_1 + E_n * K \text{----- min}$$

Bunda T1 - variant bo'yicha yillik ekspluatatsion xarajatlar (tannarx) ;

K - variantlar bo'yicha sarflanadigan kapital qo'yimlar;

En - kapital qo'yimlarning normal darajasidagi samaradorlik koeffitsienti.

Masala № 1

Agar A narxi mashina 60 ming so'm (K₁) bo'lib, shu mashinada bir yilda ishlab chiqarilgan maxsulot tannarxi 800 ming so'm va B mashinasi 100 ming so'm (K₂) bo'lib, shu mashinada bir yilda ishlab chiqariladigan maxsulot tannarxi 700 ming so'm bo'lsa, qaysi mashina samaradorliroq ekanligini aniqlang.

Masala № 2

Agar yillik maxsulot ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilda M₁ = 99000 dona, joriy yilda maxsulot hajmi M₂ = 110000 donani tashkil etsa, o'tgan yilda maxsulot tannarxi S₁ = 14286 m.so'm. Joriy yilda maxsulot tannarxi 13750 m.so'm bo'lsa, tadbir joriy qilingan so'ng yillik iqtisodni aniqlang.

Masala № 3

Tsex 159000 ta bryuk va 99000 ta kurtka ishlab chiqaradi. Soatlik tarif stavkasi 166 so'm. Ishbay ish haqida mukofot foizi 10% qo'shimcha ish haqi 6%, sotsial sugurtaga ajratma 6,8 %, maxsulot tannarxidagi shartli - doimiy sarflar 120 so'm. tsexga yangi mashina qo'llanilgandan so'ng bryuk tikishni tayyorlash 106 sekundga va kurtka tikish uchun sarflanadigan vaqt 102 sekundga qisqardi. Umumiy iqtisodni aniqlang.

Masala № 4

Erkaklar pal'tosini tikish uchun sarflangan mehnat sarfi ilg'or texnologiyani joriy etishdan oldin 1345 sekundni joriy etishdan so'ng esa 1234 sekundga, kurtka uchun esa ilg'or

texnologiya joriy etilgancha mehnat sarfi 1175 sekund, joriy etilgandan keyin esa 1064 sekundni tashkil etdi. Agar yildagi ish kunlari 246 kunni tashkil etsa, smenada ishlab chiqarish xajmi qancha oshganligi, mehnat unumdorligi va yillik iqtisodni aniqlang.

Masala № 5

Keltirilgan variantlar bo'yicha eng iqtisodiy variantni aniqlang

- 1) Bitta maxsulot tannarxi A - 16500 so'm
- 2) Nisbiy kapital qo'yilmalar A - 27000 so'm
- 3) Maxsulot tannarxi V - 17850 so'm
- 4) Nisbiy kapital qo'yilmalar V - 26200 so'm
- 5) Kapital qo'yilmalarning normativ koeffitsienti - 0,15

Masala № 6

Agar 50 milliard so'mlik amortizatsiya hisobidan 500 milliard so'mlik YAMM olinsa, uning kapital sig'imini aniqlang. 1 so'mlik maxsulot olish uchun necha tiyinlik kapital sarflangan va YAMMning qaysi qiymatlarida samaradorlik o'sgan va pasaygan hisoblanadi ?

TESTLAR

1. Sanoatda texnikani takomillashtirish tadbiriga quyidagi kiradi:

- A) Yangi mashinalar, mexanizmlar, maxsulotlarning yangi turlarini kashf etish va ishlab chiqarish.
- B) Muhim fan-texnika va sinash ishlari.
- V) Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarishni takomillashtirish.
- G) Noto'g'ri javob yo'q.

2. Texnika taraqqiyotining darajasini bilish ko'rsatkichi bu:

- A) Mehnatning texnika bilan qurollanishi
- B) Mehnatning elektr energiyasi vositalari bilan qurollanishi.
- V) Ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalash darajasi.
- G) Noto'g'ri javob yo'q.

3. Quyidagilarning qaysi birini yangi texnikaning hamda tashkiliy- texnikaviy tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda batafsil e'tiborga olish zarur:

- A) Yangi texnikani o'zlashtirish natijasi xarajatlari
- B) Maxsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlari
- V) Maxsulotlarni iste'mol qilish xarajatlari
- G) Noto'g'ri javob yo'q.

4. Kapital qo'yilmalarning texnologik- tarkibi quyidagi xarajatni ifodalaydi:

- A) Qurilish - montaj ishlarini bajarishga, asbob-uskunalar, inventarlarni sotib olishga
- B) Yangi qurilish va eski korxonalarni rekonstruksiyalashtirish

V) Yangi texnika bilan jixozlash

G) Asosiy fondlarni modernizatsiyalash

AMALIY MASHG'ULOT № 4
MAVZU: TARMOQDA MEHNAT.

Mehnat unumdorligi vaqt birligi ichida ma'lum miqdorda moddiy ne'mat yaratadigan jonli mehnatning samaradorlik darajasini ifodalaydi.

Yengil sanoatda (ishlab chiqarish) mehnat unumdorligining tez sur'atlarda o'sishga erishish ekonomika taraqqiyotining asosiy vazifalaridan biri va mehnatkashlarning moddiy farovonligini oshirishning muhim shartidir. Mehnat unumdorligining o'sishi ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirilishning bosh omillaridandir. Mehnat unumdorligi ko'rsatkichi mehnatning normal sharoitida, vaqt birligida ishlab chiqarilgan maxsulotning xajmini ifodalaydi va mutaxassislarning maqsadga muvofik faoliyatining natijasini tasvirlaydi.

Ma'lum vaqt birligida qancha ko'p maxsulot ishlab chikarilsa, maxsulot birligiga sarflangan mehnat shuncha kam bo'ladi. Bu bog'lanishni quyidagi formulada ifodalash mumkin:

$$M_v = \frac{M}{T} \quad \text{yoki} \quad M = \frac{M}{M}$$

Bu erda: M_v - mehnat unumdorligi yoki vaqt birligida ishlab chiqarilgan maxsulotning xajmi;

M - ishlab chiqarilgan yalpi maxsulotning xajmi;

T - yalpi maxsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt.

M - mehnat talablik (trudoyomkost') yoki maxsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt.

Demak, ma'lum vaqt ichida ishlab chiqarilgan maxsulot xajmining ortishi yoki ma'lum bir hajmdagi maxsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqtning kamayishi mehnat unumdorligining o'sganligini bildiruvchi ko'rsatkich hisoblanadi.

Ish xaqini tashkil etishning bosh mezonlari - mehnatning miqdori va sifatiga yarasha haq to'lashdir.

Tarif sistemasi - mehnatning sifati va sharoiti, ishlab chiqarish tarmoq'ining xalq xo'jaligidagi ahamiyati hamda korxonalarning territorial joylashuviga binoan ishchilarning ish haqini tartibga soluvchi normativlar majmuasidan iboratdir. Ishchilarga mehnatga ko'ra haq to'lashda qo'llaniladigan tarif sistemasining qismlari - tarif malaka spravochnigi, tarif setkalari va tarif stavkalaridir.

Tarif malaka spravochnigi muayyan ishlarni bajarish uchun qanday malaka talab qilinishi va ularning malakasiga ko'ra razryadlarni belgilash hamda ishchilar ixtisosini to'g'ri aniqlash va malakasiga yarasha razryad belgilash uchun xizmat qiladigan muhim normativ xujjatdir. Bu

spravochnik yordamida har bir ishchiga uning bajaradigan ishiga va kobiliyatiga qarab tarif razryadi beriladi.

Tarif setkasi har xil tarif razryadli belgilangan ishchilar va ishlar urtasida ish haqining zaruriy nisbat darajasini ko'rsatib turuvchi shkaladir.

Tarif stavkasi ishchiga ish vaqti birligida pul bilan to'lanadigan mehnat haqining absolyut miqdorini (soatlik, kunlik va oylik tarif stavkalarini) ifodalaydi.

Korxonalar ish xaki formolari sarflangan mehnat miqdorini ulchashning ikki usuliga: tayyorlangan maxsulotga sarflangan vaqt va maxsulot miqdori bilan belgilanadi. SHunga muvofik ish haqining ishbay va vaqtbay formolari mavjuddir.

Ishbay ish haqi - bu muayyan sifatda ishlab chiqarilgan maxsulot miqdoriga haq to'lashdir.

Vaqtbay ish haqi - bu xodimning haqiqiy ishlangan vaqti va malakasiga binoan to'lanadigan haqdir.

Ishbay rastsenka quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$S = C * K_{urt} * t$$

Bu erda:

S - tarif stavkasi, so'm

Kurt - urtacha tarif koeffitsienti

t - bitta maxsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan vaqt, soat

C

$$S = \frac{H_{i/ch}}{C}$$

H_{i/ch}

Bu erda, H_{i/ch} - ishlab chiqarish normasi

$$P = S * N_B$$

Bu erda, N_B - vaqt normasi

Masala № 1

Fabrikada reja bo'yicha ishga kelganlar soni 3008 ta, rezerv ishchilar 6 % ni tashkil etsa, ro'yxatdagi ishchilar soni necha kishini tashkil etadi ?

Masala № 2

Agar tovar maxsulot V = 163756,3 ming so'm, ro'yxatdagi ishchilar soni 6000 kishi bo'lsa, fabrika bo'yicha rejadagi mehnat unumdorligini aniqlang.

Masala № 3

Agar maxsulot hajmi joriy yilda 355000 donani, reja yilida esa 372000 donani, xodimlar soni joriy yilda 110 kishini, reja yilda esa 7 % ga kamaygan bo'lsa, mehnat unumdorligini o'zgarish % ni toping. Bitta maxsulot ulgurji narxi 5000 so'm.

Masala № 4

Agar bir yil ichida maxsulot hajmi 150000 dona, tsexdagi ishchilar soni 120 kishi, ishga chiqmagan kunlarning % - 5 % bo'lsa mehnat unumdorligi miqdorini aniqlang. Smena davomiyligi 8 soat. Bir yildagi ish kunlari soni 240 kun.

Masala № 5

Agar IV razryadli to'quvchining tarif stavkasi 160 so'm, soatlik ishlab chiqarish normasi 42 m bo'lsa, 100 m gazlamaning ishbay rastsenkasini aniqlansin.

Masala № 6

Agar bitta maxsulot ishlab chiqarish ish vaqti normasi 0,5 soat, IV razryad bo'yicha soatlik tarif stavkasi 206 so'mni tashkil etsa, 10 ta maxsulot ishlab chiqarish ishbay rastsenkasini aniqlang.

Masala № 7

Agar brigada IV, V, VI tarif razryadli uch kishidan iborat bo'lib, ular 206 so'm, 210 so'm, 215 so'mni, brigada ishlab chiqarish normasi 250 m/soatni tashkil etsa, 1 m gazlama uchun ishbay rastsenkasini aniqlang.

Masala № 8

Korxonada vaqtbay - mukofot sistemasida ishlovchi ishchi bir oyda 177 soat ishlagan, uning og'ir ish sharoitida ishlagani uchun soatlik ish stavkasi 8,60 so'm bo'lsa, ishning sifati 30% mukofot ajratilgan bo'lsa, ishchining ish haqi aniqlansin.

TESTLAR**1. Mehnat unumdorligi bu:**

- A) Vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan maxsulot xajmi
- B) Vaqt birligi ichida ishlab chiqarilgan maxsulot turi.
- V) Yalpi maxsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt
- G) Ishlab chiqarilgan yalpi maxsulotning xajmi.

2. Mehnat unumdorligining moddiy- texnikaviy omili:

- A) Ishlab chiqarish quollarining sifati
- B) Mutaxassislarning tarkibi
- V) Mehnatni tashkil etish darajasi
- G) Xodimlarning ishga munosabati

3. Mehnat unumdorligining sotsial- iqtisodiy omillari:

- A) Mutaxassislarning tarkibi, ma'lumoti, mehnatni tashkil etish darajasi.
- B) Ishlab chiqarish vositalarining sifati
- V) Ishlab chiqarish quollarining sifati

G) Ishlab chiqarish vositalarining va qurollarining takomillashishi va foydalanish saviyasi.

4. Mehnatga xak to'lashning elementi:

A) Tarif stavkasi

B) Mehnatni normallashtirish

V) Mehnatga haq to'lash formalari va sistemalari

G) Noto'g'ri javob yo'q.

AMALIY MASHG'ULOT № 5 **MAVZU: TARMOQDA ISHLAB CHIQARISH AKTIVLARI.**

Asosiy ishlab chiqarish fondlari deb ishlab chiqarish jarayonida uzoq davr bevosita va bilvosita katnashadigan, moddiy boyliklar yaratishda ishtirok etadigan hamda tabiiy shaklini saqlagan holda o'z qiymatini tayyorlanayotgan maxsulotga qisman o'tkazib boradigan mehnat vositalariga aytiladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari quyidagi gruppalariga bulinadi:

- 1) binolar, inshootlar;
- 2) uzatish uskunalari;
- 3) mashina va asbob uskunalari;
- 4) transport vositalari;
- 5) xamma turdagi instrumentlar
- 6) ishlab chiqarish inventarlari va boshqalar.

Asosiy fondlar aktiv va passiv qismlarga bo'linadi. Maxsulot chiqarish protsessida bevosita ishtirok etib, uning xajmini oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi mehnat vositalari asosiy fondlarning aktiv qismi deb ataladi. Asosiy fondlarning aktiv qismining normal ishlashi uchun sharoit yaratib beruvchi mehnat vositalari asosiy fondlarning passiv qismi deb ataladi.

Asosiy fondlarni moddiy va ma'naviy emirilishni qoplash uchun ularni qiymati ammortizatsion ajratma tariqasida, ulardan foydalanish davrida maxsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga qo'shib boriladi.

Amortizatsiya deb asosiy fondlarning emirilishi darajasiga binoan asta-sekin o'z qiymatini rejali ravishda tayyor maxsulot qiymatiga o'tkazib borishiga aytiladi.

Yillik amortizatsiya ajratmasi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$A = \frac{P+R+M+D-L}{T}$$

Bunda, P- asosiy fondlarning to'liq dastlabki qiymati

R - kapital ta'mir qiymati

M- modernizatsiya uchun ketgan xarajatlar

D - yaroqsiz holga kelgan jixozlarga demontaj uchun ketgan xarajatlar

L - asosiy fondlarning sotishdan keyingi narxi.

T - amortizatsiya davri (yil)

Amortizatsiya normasi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$N = \frac{A}{P} * 100 \%$$

Aylanma fondlar deb bir ishlab chiqarish jarayoni katnashib o'zining qiymatini tayyor maxsulotga to'liq ravishda yetkazib o'zining moddiy shaklini butunlay o'zgartiradigan mehnat buyumlariga aytiladi.

Aylanma fondlarning ishlab chiqarish zapaslariga: xom Ashe va asosiy materiallar, yoqilg'i, mol joylanadigan materiallar va yashiklar, remontga kerak bo'lgan zapas qismlar, maxsus ish kiyimlari kiradi.

Aylanma mablag' lar betuxtov harakatda bo'ladi. P1 -M-YaM-TM-P2

Aylanma mablag' larning aylanish soni quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$K = \frac{R}{A_v}$$

K - aylanish soni (koeffitsienti)

R - maxsulotning yillik realizatsiya hajmi.

Av - aylanma vositalarning o'rtacha talab qilish miqdori.

Mablag' larning bir aylanishning davom etishi quyidagi formula bilan topiladi:

$$D = \frac{A_v}{R} * 360$$

Masala № 1

Agar yil boshida quvvat 12 mln. so'm. O'rtacha kiritiluvchi quvvat 3 mln.so'm, o'rtacha chiqariluvchè quvvat qiymati 3,5 mln. so'm, yil yakuniga qadar kiritilgan va chiqarilgan jixozlarning ishlash va turib qolish oylari soni 10 oy bo'lsa, o'rtacha yillik quvvatni toping.

Masala № 2

Asosiy fondlarni yangilash va chiqarilish (olib tashlash) koeffitsienti va foizini aniqlang.

№	Ko'rsatkichlar	O'lch. birligi	qiymati
1.	Asosiy fondlar qiymati	m.so'm	4500
2.	Yangi uskunalarni o'zlashtirish	m.so'm	500
3.	Eski uskunalar (ishlab chiqarishdan olib tashlangan)	m.so'm	400

Masala № 3

Asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymati

I kv - 20000 ming so'm

II kv - 24000 ming so'm

III kv - 24000 ming so'm

IV kv - 20000 ming So'm

Yillik fondlar uchun norma to'lovi 6 % bo'lsa yillik fond to'lovi qiymatini aniqlang.

Masala № 4

Agar yil boshidagi asosiy fondlarning dastlabki qiymati 5500 ming so'm, asosiy fondlarning yillik kiritilish qiymati 1000 ming so'm, chiqariluvchi asosiy fondlarning qiymati 500 m. so'm, ekspluatatsiya muddati kiritiluvchi fondlar uchun 7 oy va chiqariluvchi fondlar uchun 10 oy, kapital remont qiymati 2000 m. so'm, modernizatsiya qiymati 1300 m. so'm, chiqarib tashlash qiymati 400 m. so'm, ammotizatsiya davri 10 yil bo'lsa, yillik amortizatsiya ajratmasini toping.

Masala № 5

Agar maxsulot hajmi 15 mln. so'm, asosiy fondlarning qiymati 6 mln. so'm korxonadagi ishchilar soni 800 kishi, vaqt me'yori fondi 15600 soat, haqiqiy ishlangan soat 14540 soat, potokning ishlab chiqarish quvvati 120000 dona va potokdagi haqiqiy ishlab chiqarilgan maxsulot 115700 donani tashkil etsa, fondlarning foydalanish ko'rsatkichlarini toping.

Masala № 6

Korxonaning asosiy ishlab chiqarish fondini o'rtacha qiymati quyidagicha: ming so'm hisobida.

I kv - 15000

II kv - 21000

III kv - 19000

IV kv - 24000 ni tashkil etadi. Korxonada me'yorlashgan aylanma vositalarning o'rtacha yillik qiymati 5925 ming so'mga teng. Fond uchun yillik to'lov summasi aniqlansin.

TESTLAR

1. Quyidagilarning qaysi biri asosiy fondlarga misol bo'la oladi.

- A) binolar, inshootlar, transport vositalari
- B) xom ashe, yoqilg'i
- V) yordamchi materiallar, mol joylanadigan yashiklar
- G) Noto'g'ri javob yo'q.

2. Aktiv asosiy fondlar bular:

- A) ish mashinalari, asbob-uskunalar
- B) binolar, inshootlar
- V) uzatish uskunalari
- G) Noto'g'ri javob yo'q

3. Passiv asosiy fondlarga quyidagilar misol bo'la oladi:

- A) binolar, inshootlar
- B) ish mashinalari
- V) asbob-uskunalar
- G) Noto'g'ri javob yo'q.

4. Asosiy fondlarni baholashning quyidagi turi mavjud:

- A) Dastlabki to'la qiymat orqali belgilangan baho
- B) Qolgan qiymati orqali belgilangan baho
- V) Ishlab chiqarishdan chiqarib tashlash bahosi
- G) Noto'g'ri javob yo'q.

5. Quyidagilarning qaysi biri aylanma fondlarga misol bo'la oladi:

- A) binolar, inshootlar,
- B) ish mashinalari, asbob-uskunalar
- V) xom ashe, yoqilgi, remontga kerakli bo'lgan zapas qismlar
- G) Noto'g'ri javob yo'q.

6. Normalashtirilgan aylanma mablag' lar tarkibiga quyidagilarning qaysi biri kiradi:

- A) aylanma fondlarning ombordagi ishlab chiqarish zapaslari
- B) ishlab chiqarishdagi aylanma fondlar
- V) ombordagi realizatsiyaga tayyorlangan tayyor maxsulotlar.
- G) Noto'g'ri javob yo'q.

TOPSHIRIQ № 1

Asosiy fondlar amortizatsiyasi - bu fondlardan o'z qiymatini tayyor maxsulotga o'tkazish protsessi. Amortizatsiya ajratmalar bo'limlarga bo'linadi.

1. Ishlab chiqarish jarayonining chiqqan asosiy fondlarni to'liq yangilash uchun (ya'ni renovatsiya)

2. Eksploatsion (iste'mol) jarayonida asosiy fondlarni qisman tiklash va modernizatsiyalash uchun

Bu ajratmalar maxsulot tannarxiga qo'shiladi va maxsulotni sotishga qarab qaytadi.

Har yilgi amortizatsiya ajratmalar shu formula bo'yicha hisoblanadi.

$$A = \frac{P + R + M + D - L}{T}$$

A - yillik amortizatsiya qiymati (so'm)

P - To'liq dastlabki qiymati (asosiy fondlardan)

R - Kapital ta'mir qiymati

M - Modernizatsiya uchun ketgan xarakterlar

D - Yaroqsiz holga qolgan jihozlarga demontaj uchun ketgan xarajatlar

L - A.F lardan sotishning keyingi narxi

T - Amortizatsiya davri muddati (yil)

Amortizatsiya ajratilgan asosiy fondlarning qiymati amortizatsiya qilish normasi bo'yicha ishlab chiqariladi.

Amortizatsiya normasi asosiy fondlarning qiymati to'lashdan %larda ifodalovchi hissasi

$$N = \frac{A}{P} * 100$$

N - Amortizatsiya normasi (%) Amortizatsiya ajratmalarning yilgi normasi

P - AFlarning dastlabki qiymati

Quvvatlar turli xil bo'ladi; yil boshida kiritiluvchi va yakunlovchi shuningdek o'rtacha yillik.

O'rtacha yillik quvvati yilning alohida paytlari korxona quvvatining o'rtacha miqdoridan aniqlanadi. O'rtacha yillik quvvat quyidagi formula bilan aniqlanadi.

$$M_{ur\ yil} = M_{i.b} M_{ur.xir} - M U_{r.i/ch}$$

$M_{ur\ yil}$ - o'rtacha yillik quvvat

$M_{i.b}$ - yil boshiga bo'lgan quvvat

$M_{ur.kir}$ - o'rtacha yillik kiritiluvchi quvvat

$M_{Ur\ yil}$ - o'rtacha yillik kiritiluvchi quvvat

$M_{ur.chik}$ - o'rtacha yillik chiqaruvchi (yakunlovchi quvvat o'rtacha yillik kirituvchi quvvatning aniqlash formulasi)

M_{kir} - ma'lum vaqtda davra kirituvchi quvvat

T - yil yakuniga qadar kiritilgan jihozlarning ishlash oylari soni yakunlovchi o'rtacha yillik quvvati.

M_{yan} - ma'lum vaqtni yakunlovchi quvvat

T - yil yakuniga qadar chiqaruvchi jihozlarning turib qolish oy/i soni

Boshlang'ich berilgan qiymatlar

Ko'rsatkichlar	Variant bo'yicha qiymat
1. Yil boshiga bo'lgan asosiy fondlarning qiymati	
2. SHu yilga kiritiluvchi asosiy fondlarning narxi	
3. SHu yilgi yakunlovchi asosiy fondlarning narxi	
4. a) Kiritiluvchi fondlardan, b) Yakunlovchi fondlardan ishlatish davomiyligi	

TOPSHIRIQ № 2

Korxonaning aylanma vositalari deganda aylanma ishlab chiqarish fondlariga va aylanish fondlariga qo'yilgan pul mablag'lari majmuasi tushuniladi. Aylanma omillar doiraviy aylanishining barcha bosqichlari - bosib o'tuvchi vaqt oralig'i aylanma omilkor aylanish davrini tashkil etadi. Aylanma omillar strukturasi bu hajmdagi aylanma omillar alohida elementlarning miqdoriy munosabatidir. Normalanuvchi aylanma vositalari aylanma fondlar va omborlardagi tayyor maxsulot kiradi. Normalamaydigan maxsulotlarga esa xaridorlarga yuklatilgan hisoblangan vositalar, korxonaning pul mablag'lari kiradi. Aylanma omillardan samarali foydalanishni xarakterlovchi bir necha ko'rsatkichlar mavjud.

1. Aylanish koeffitsienti

$$K_a = \frac{R}{A_v} \text{ formuladan topiladi}$$

K_a - Aylanish koeffitsienti

R - Mahsulotning yillik realizatsiya hajmi

A_v - Aylanma vositalarning o'rtacha yillik talab qilish miqdori

2. Bir aylanishning davomiyligi

$$D = \frac{A_v}{R} \cdot 360 \% \quad \text{yoki} \quad D = \frac{360}{K_a}$$

D - Aylanish davrining davomiyligi

K_a - Aylanish koeffitsienti

R - Maxsulotning yillik realizatsiya hajmi

A_v - Aylanma vositalarning o'rtacha yillik talab qilish miqdori

Dastlabki ma'lumotlar

№	Ko'rsatkichlar	Variantlar bo'yicha qiymati					
		I	II	III	IV	V	VI
1.	Kvartallar bo'yicha aylanish vositalariga bo'lgan talab I kv. II kv. III kv. IV kv. V kv.						

	VI kv.						
2.	Realizatsiyaning yillik hajmi						
3.	Bir aylanish davrining davomiyligi 72 kun						

AMALIY MASHG'ULOT № 6
MAVZU: TARMOQNING MOLIIYAVIY RESURSLARI.

Iqtisodiyotni rivojlantirish pul mablag'larini talab qiladi. Pul resurslarini hosil etish, ularni jamlash, taqsimlash va ishlatish yo'zasidan paydo bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar moliya deyiladi. Moliya pul munosabatlari bo'lsada u ishlab chiqarishga bog'liq. Pul mablag'larini topish, uning taqsimlanishi va qaysi maqsadlarda hamda qanday usullar bilan ishlatilishi moliya tizimini tashkil etadi. Korxona va tashkilotlarning moliyasi ular ishning mazmuniga qarab ikki guruxga bo'linadi: kommertsiya ishi bilan mashg'ul korxona va tashkilotlar; nokommertsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar. Firma moliyasi quyidagi manbalarga tayanadi:

- o'z tovarlari va xizmatlarini sotishdan tushgan pul;
- o'zi chiqargan aksiyalarni sotishdan olingan pul;
- o'zgalardan oldin sotib olgan aksiyalar va obligatsiyalarga tegadigan dividend;
- davlat yoki har xil homiyar tomonidan yordam sifatida berilgan pul;
- bankdan qarzga olingan pul;
- sugurta kompaniyalari beradigan pul.

Soliqlar majburiy to'lov shaklida korxonalar, tashkilotlar va aholi davlatga to'laydigan puldir. Soliqlar hamma mamlakatlarda mavjud, faqat davlatga to'lanadi. Soliqlar tekinga berilmaydi, ular davlat ko'rsatgan xizmatlar sarf-xarajatini qoplash uchun to'lanadi. Soliqlar uch vazifani bajaradi:

- birinchisi- fiskal vazifa, davlat xazinasini (byudjet) ga pul tushirish;
 - ikkinchisi - iqtisodiy faollikni rag'batlantirish;
 - uchinchisi - aholining ayrim toifalariga imtiyoz berib, ularni ijtimoiy himoyalash hisoblanadi.
- Nimagaki soliq solinsa u soliq ob'ekti, soliq to'lovchilar esa soliq sub'ekti hisoblanadi.

Bank iqtisodiyot ishtirokchilarining pul yuzasidan bo'lgan aloqalariga xizmat qiluvchi muassasadir.

Banklar pul olishni harakatga keltiruvchi motor-yurak, pul bilan bo'ladigan jami hisob kitoblarni bajaradilar. Hamma pul to'lovlari (trasfertlar) banklar orqali o'tadi. Banklar quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- pul va Qimmatbaho buyumlarni omonatga olib, saqlab beradi;
- pul bilan bo'ladigan hisob-kitob operatsiyalarini, xususan pul to'lash ishlarini bajaradi;

- chet el valyutasini sotadi va sotib oladi;
- o'z qo'kulidagi pulni kaytarishlikdir, foizlik va muddatlik shartnomalari bilan unga muxtojlariga qarz (ssuda) ga beradi, ya'ni kredit bilan shug'ullanadi;
- biznes yuzasidan maslaxat beradi va hokazo;

Pul bor joyda qarz olish va qarz berish yuzaga keladi, bu ishni banklar bajaradi.

Kredit pulni ma'lum shartlarga rioya etgan holda qarzga berish va uni qarzga olib ishlatishni bildiradi.

Pul bozori vaqtincha ishlatilmay turgan pulni pulga muxtojlariga foiz to'lash sharti bilan qarzga berish, ya'ni uni ma'lum narxda sotish yuzasidan paydo bo'lgan iqtisodiy munosabatdir.

Veksel' qarzdor tomonidan ma'lum miqdordagi pul qarzini qarz beruvchi belgilangan muddatda qat'iy to'lash majburiyatini bildiruvchi hujjat yoki qarzdorlik guvohnomasidir.

Pul bozori ikki turga bo'linadi:

1. Oddiy to'lov vositasi bo'lgan pul bozori. Bu bozor pul qisqa muddatli kreditga beriladi.
 2. Kapital bozori. Bu bozorda pul kapital sifatida uzoq muddatli qarzga beriladi.
- Bank tizimida davlatga qarashli bo'lgan Markaziy banklar aloxida o'rin tutdilar. Markaziy banklar quyidagi asosiy vazifalarni bajaradilar:
1. Pul emmisiyasi markazi vazifasini o'taydi, ya'ni muomalaga qog'oz va tanga pullarni chikaradi, pul muomalasini nazorat qiladi;
 2. Davlat xazinasini, valyuta boyligini saqlaydi, davlatning xazinaboni hisoblanadi.
 3. Kredit zaxirasini o'z qo'lida tutib turadi, bu zaxirani kredit talabiga qarab, banklar o'rtasida taqsimlanadi.
 4. Davlatning muntazir (pul) siyosatini amalga oshiradi, bank ishi, umuman kredit munosabatlariga oid qoida- tartiblarni belgilab, ularning bajarilishini nazorat qiladi.

Masala № 1

Korxona ixtiyorida quyidagi pullar bor: foyda 11,2 million So'm, amortizatsiya 1,5 million So'm, mol-mulkni sotishdan tushgan pul - 11,5 million So'm bankdan karz olingan pul 1,8 million So'm, sugurta kompaniyasiga tulanadigan pul 1,2 million pul, dividend 1,3 million So'm, olingan qarz uchun foiz so'mmasi 1,7 million So'm, davlatning moliyaviy yordami 2 million So'm. Korxonaning o'z-o'zini moliyalash mablag' i miqdorini aniqlang.

Masala № 2

Ishchi har oyda 180000 so'm maosh oladi. U 28 foiz miqdorida daromad solig'i to'ladi, 10000 so'mga uzuk oldi, uzuk narxida aktsiz 13,5 % ini tashkil etadi, er uchun 5700 so'm, imorat uchun 8210 so'm soliq to'ladi. Hisoblab ko'ring ishchi yiliga qancha soliq to'ladi, shundan necha so'mi egri soliq va necha so'mi to'g'ri soliq, ularning umumiy soliqlar tarkibidagi xissasi qancha foizini tashkil etadi ?

Masala № 3

Korxonani soliq to'lash tarkibida quyidagi holatlar ro'y berdi: soliq vaqtida to'landi; soliq to'lash vaqti cho'zildi, soliq stavkasi o'zgarmadi; soliq stavkasi oshirildi; to'lanadigan soliq 2 yillik kreditga aylantirildi; soliq to'lanadigan mol-mulk (soliq baza) sining narxi kamaytirildi. Qaysi hollarda soliqdan imtiyoz berildi, shuni sharxlab bering.

Masala № 4

Korxona bankdan bir yilda 40% haq to'lash sharti bilan yarim yil muddatga 4000000 so'm kredit oldi. Muddat tugaganda korxona banka qancha pul kaytarishi kerak?

TESTLAR

1.Soliq - bu:

- A) Byudjetga tushadigan majburiy to'lovlar
- B) Soliq to'lovchi bilan soliq soluvchi o'rtasidagi munosabatdir
- V) Milliy daromadning davlat ixtiyoriga olinadigan bir qismidir.
- G) Davlat va byudjetlarni tashkil etishning asosiy vositasidir.
- D) Noto'g'ri javob yo'q.

2. Soliq ob`ekti deganda:

- A) Soliq undiruvchilar tushuniladi
- B) Soliq to'lovchilar tushuniladi
- V) Aholi, ya'ni ayrim jismoniy shaxslar tushuniladi
- G) Soliq solinadigan daromad, mol-mulk tushuniladi

3. Soliq konunchiligi bo'zilganda soliq organlari tomonidan soliq to'lovchilarga:

- A) Moliyaviy jazolar qo'llaniladi
- B) Ma'muriy jazolar qo'llaniladi
- V) Noto'g'ri javob yo'q.

4. Mijoz bundan besh yil muqaddam banka 1000 so'm qo'ygandi. Hozirgi kunda uning schetida 40400 so'm bor. Jamg'armaning kapitallashuv koeffitsientini aniqlang:

- A) 4,04
- B) 3,04
- V) 5,04
- G) 4,40

5. Markaziy bank quyida ko'rsatilgan qaysi vazifalarni bajaradi ?

- A) Pul muomalasini nazorat qiladi
- B) Valyuta boyligini saylaydi
- V) Davlatning monetar (pul) siyosatini amalga oshiradi.
- G) Noto'g'ri javob yo'q.

AMALIY MASHG'ULOT № 7
MAVZU: TARMOQDA XO'JALIK YURITISH MEXANIZMI.

Jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratishda ishlab chiqarish xarajatlarini, ya'ni maxsulot tannarxini kamaytirish muhim ahamiyatga egadir.

Maxsulotning tannarxi korxonalarning faoliyatida muhim ko'rsatkichlardan biri bo'lib, u maxsulot ishlab chiqarish va uni sotishga sarflangan mablag' lardan tashkil topadi.

Maxsulot tannarxini pasaytirish yo'llari:

1. Maxsulot birligiga to'g'ri keladigan xom Ashe va materiallar sarfini kamaytirish.
2. Elektr energiyasi, yoqilg'i, suv va hokazolar sarfini kamaytirish.
3. Tannarxdagi ish haqi ulushini kamaytirish.
4. Ishlab chiqarishni tashkil qilishni mukammallashtirish va boshqarish uchun ketadigan sarflarni kamaytirish.
5. Ishlab chiqarish xajmini o'stirish natijasida tannarxni pasaytirish.
6. Ishlab chikariladigan maxsulot sarfini yaxshilash natijasida xarajatlarni kamaytirish.

Korxona ishlab chikarilayotgan maxsulot birligi tannarxi xarajatlarining alohida moddalar bo'yicha pulda ifodalanish maxsulot tannarxini kal'kulyatsiyalash deb ataladi.

Kal'kulyatsiya orqali ishlab chiqarish uchun belgilangan mablag' lar qanday maksad va yo'nalishlarda sarflanganligi aniqlanadi, ya'ni xarajatlar sarflangan joylari hamda maxsulot maqsadga muvofiq yo'nalishlari bo'yicha gruppalariga ajratiladi.

Korxona ishini harakterlovchi muhim sifat ko'rsatkichlaridan biri foyda va rentabellikdir.

Foyda - korxonaning hamma ishlab chiqarish xo'jalik faoliyati natijalarini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar.

Tovar maxsulotini sotishdan olingan foyda (F) realizatsiya qilinadigan tovar maxsulotining korxona ulgurji baholarida belgilangan qiymatidan shu maxsulotning to'la tannarxini ayirish yo'li bilan aniqlanadi: $F = TM_{ulg} - T_{nt}$

Ishlab chiqarish rentabelligi korxona ishi samaradorligini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar

$$R_{i/ch} = \frac{F}{A_s F + A_i F} * 100 \%,$$

Bu erda:

$A_s F$ - asosiy fondlar qiymati

$A_i F$ - aylanma fondlar qiymati

Maxsulot rentabelligi maxsulot realizatsiya qilishdan olingan foyda summasining uning tannarxiga nisbati sifatida aniqlanadi.

F

$$R = \frac{\text{-----}}{T_{nt}} * 100 \%$$

Masala № 1

Agar tovar maxsulot 56000 ming so'mni, uning to'la tannarxi 5088 ming so'mni tashkil etsa, maxsulotdan olinadigan foydani aniqlang.

Masala № 2

Agar maxsulotning to'la tannarxi 50880 ming So'm, maxsulot sotishdan kelgan foyda 5120 ming So'm bo'lsa, maxsulot rentabelligini aniqlang.

Masala № 3

Gazlama ishlab chiqarish 10500 ming metr bir yilda bo'lib, uning 1 metrining ulgurji narxi 1000 so'm, bir so'mlik tovar maxsulotining xarajati 91 tiyinni tashkil etsa, maxsulotdan olingan foyda va rentabellik topilsin.

Masala № 4

Agar maxsulotning to'la tannarxi 9000 ming So'm, maxsulot rentabelligi 12 % bo'lsa, maxsulotdan olingan foyda va realizatsiya qilingan tovar maxsulot xajmi aniqlansin.

Masala № 5

Agar quyidagi jadvalda keltirilgan xarajat o'zgarsa, tannarxning % da o'zgarishni toping.

Masala № 6

Agar asosiy materiallarga ketgan xarajatlar 6300 ming So'm, boshqa moddalar bo'yicha xarajatlar 900 m. So'm, maxsulot ishlab chiqarish xajmi 400 ming dona, bitta maxsulotning ulgurji narxi 2000 so'm bo'lsa maxsulot birligi tannarxi uning rentabelligi va foydani toping.

Masala № 7

Agar maxsulot yillik realizatsiyasi 84435 dona, ishlab chiqarish tannarxi bitta maxsulot uchun 27500 so'm, ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlar ishlab chiqarish tannarxini 1,3 % ni tashkil etsa maxsulot rentabelligi va foydani aniqlang. Bitta maxsulot ulgurji narxi 39500 so'm.

TESTLAR

1. Asosiy xarajatlar tarkibiga:

- A) xom - ashyo, asosiy materiallar
- B) Texnologik yoqilgi va energiya
- V) Asosiy ishlab chiqarishdagi ishchilarning ish haqi kiradi.
- G) Noto'g'ri javob yo'q.

2. Qo'shimcha xarajatlar tarkibiga quyidagi keltirilganlarning qaysi kiradi:

- A) Ishlab chiqarishni tashkil etish xarajatlari
- B) Ishlab chiqarishni boshqarish xarajatlari

V) Texnikaviy tayyorgarlik va xizmat ko'rsatish xarajatlari

G) Noto'g'ri javob yo'q.

3. Quyida keltirilganlarning qaysi biri maxsulot tannarxini pasaytirish yo'liga kiradi:

A) Tannarxdagi ish haqi ulushini kamaytirish

B) Maxsulotni kamaytirish

V) Ishchilar sonini kamaytirish

G) Noto'g'ri javob yo'q.

4. Foydani aniqlashda quyida keltirilgan formulalarning qaysi biri to'g'ri ?

A) $F = TM - T_{nt}$

B) $F = TM + T_{nt}$

V) $F = T_n - TM$

G) $F = TM : T_{nt}$

5. Rentabellikni aniqlashda quyida keltirilgan formulalarning qaysi biri to'g'ri:

A) $R = \frac{F}{T_{nt}} * 100 \%$

B) $R = \frac{T_{nt}}{F} * 100 \%$

V) $R = F * T_{nt} * 100 \%$

G) $R = F + T_{nt} * 100 \%$

6. Quyida keltirilgan firma faoliyatining 4 ta variantidan qaysi biri past rentabelli?

A) 6 mln xarajat qilib 2 mln foyda olgan

B) 5 mln xarajat qilib 1,5 mln foyda olgan

V) 10 mln xarajat qilib 3 mln foyda olgan

G) 20 mln xarajat qilib 6 mln foyda olgan

TOPSHIRIQ № 1

Foyda qo'shimcha qiymat korxonaning 1 qismi ko'rinishda bo'lib qaysiki bu qo'shimcha qiymat korxonaning ixtiyorida ishlab chiqarish korxonaning kengaytirish moddiy rag'batlantirish kuchaytirish maqsadida va davlat byudjetidagi zarur mablag'larini ajratish uchun qoldiriladi.

Qo'yilgan foydani turlarini ko'rsatish mumkin. Balanslangan foyda turi hisoblangan (hisobli) foyda turi va realizatsiyadan keladigan foyda

Balanslangan foyda quyidagilardan tashkil topgan.

- Maxsulotni realizatsiya qilishdan bo'ladigan foyda

- Realizatsiyadan tashqari daromad
- Realizatsiyadan tashqari zararlar.

Hisoblangan (raschetnaya) foyda balanslangan foyda (-) minus asosiy va aylanma fondlar byudjetiga majburiy to'lovlar, belgilangan (fiksirovanniy) to'lovlar va bank kreditiga protsentlardan tashkil topgan. Balanslangan foyda miqdori

$F_b = F_{real} + D - Z$ formula bo'yicha topiladi.

Bu erda :

F_b - balanslangan foyda

F_{real} - Maxsulotni realizatsiyasidan keladigan foyda

D - Realizatsiyadan tashqari daromad

Z - Realizatsiyadan tashqari zararlar

Hisoblangan foyda miqdori

$F_{hisob} = F_b - (P_{b.k} + P_f + P_{a.f})$

Foyda. Absolyut summasi miqdoriga tannarx va baho darajasidan tashqari yana ishlab chiqarish masshtabi ham ta'sir ko'rsatishi sababli u korxona ishidan effektivligini to'liq xarakterlay olmaydi.

Korxonaning ma'lum 1 davridan faoliyatining iqtisodiy natijalarini baholash uchun umumiy rentabellik ko'rsatkichidan foydalaniladi.

$$R_o = \frac{F_b}{F_{of} + F_{nos}}$$

Bu erda:

- Umumiy rentabellik darajasi
- Asosiy fondlarning o'rtacha yillik narxi (qiymati)
- Aylanma fondlarning o'rtacha yillik narxi (qiymati)
- Balanslangan foyda

Hisoblangan rentabellik darajasini aniqlash uchun balanslangan foyda o'rniga hisoblangan foydaning foydalanish kerak, ya'ni

$$R = \frac{F}{T_{nt}} * 100 \%$$

formuladan topish kerak.

Bu erda:

R - Buyumning rentabellik darajasi

F - Buyumni realizatsiya qilishdan keladigan foyda

T_{nt} - Buyumning tannarxi

Dastlabki ma'lumotlar (qiymatlar)

№	Ko'rsatkichlar	Variantlar bo'yicha qiymati					
		I	II	III	IV	V	VI
1.	Plan bo'yicha balanslangan foyda (mln) so'm						
2.	Asosiy fondlar (mln. so'm) - yil boshida -1 martdan kiritiladigan -1 iyuldan kiritiladigan						
3.	Ishlab chiqarish fondlariga to'lovlar						
4.	O'rtacha yillik miqdori						
5.	Tayinlangan to'lovlar						
6.	Davlat bankida kredit uchun to'lov-kvartal summasi (mln. so'm)						
	Hisoblangan rentabellikni aniqlash uchun avval quyidagilarni aniqlash kerak bo'ladi. Hisoblangan rentabellikni aniqlash uchun avval quyidagilarni hisoblash kerak bo'ladi						
1.	Hisoblangan foyda						
2.	Normalashtirilayotgan aylanma omillarning o'rtacha yillik narxi						
3.	Umumiy rentabellik						
4.	Hisoblangan						

TOPSHIRIQ № 2

Maxsulotning tannarxi - bu narxning pulda ifodalangan qismi bo'lib u sanoat korxonalarining yoki ishlab chiqarish birlashmalarining ishlab chiqarish vositalarini sotib olishga hamda ishchi va xizmatchilarning ish haqiga ketuvchi xarajatlarni ishlab chiqarish jarayonida va maxsulotni sotish jarayonida qoplanadi. Hisobga olish va rejalash praktikasida tannarxning 2 ta klassifikatsiyasi mavjud.

A) Xarajat elementlari bo'yicha

B) Kal'kulyatsiya tuzish bo'yicha xarajat elementlarini gruppalar faqat iqtisodiy 1 yilligiga qarab, ularning maqsadiga va ketgan joyiga bog'liq bo'lmagan holda bajariladi.

Kalkulyatsiya stat'yalari bo'yicha xarajatlar esa ulardan ketgan joyiga va ishlab chiqarish jarayonidagi o'rniga maqsadiga bog'liq holda gruppalanadi.

Sanoat maxsulotining tannarxini turli xil etuvchi xarajatlar turli belgilarga ko'ra gruppalanadi.

A) Texnologiya nuqtai nazarining asosiy va qo'shimcha. Asosiy xarajatlarga maxsulot ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosita bog'liq xarajatlar kiradi. Bunga xom ashyoga ketuvchi xarajatlar asosiy va yordamchi materiallarning xarajatlari, yoqilg'i, energiya, asosiy va yordamchi materiallarning xarajatlari, yoqilg'i, energiya, asosiy ishchilarning ish haqi, jihozlarni saqlash va ulardan foydalanish uchun ketadigan xarajatlar kiradi.

Tashkilotni boshqarish va ishlab chiqarish jarayonida ishlash bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlardan tsex bo'yicha umumiy zavod bo'yicha boshqa ishlab chiqarish va ishlab chiqarishdan tashqari xarajatlar.

B) Aniq buyumlar tannarxiga munosabat usulidan bog'liq holda xarajatlar to'g'ri va bilvosita xarajatlarga bo'linadi.

Agar xarajatlarni maxsulotning tannarxiga to'g'ri -to'g'ri o'tkazish mumkin bo'lsa, bunday xarajatlar to'g'ri -to'g'ri xarajatlar bo'ladi. Bilvosita xarajatlar buyumlar orasida shartli ravishda bilvosita usulda taqsimlanadi, masalan tsex bo'yicha, umumiy zavod bo'yicha xarajatlarni ishchilardan asosiy ish haqi summasiga va jihozlarni saqlash va ulardan foydalanish xarajatlari proporsional holda taqsimlash tavsiya etiladi.

V) Sanoat hajmining dinamikasining tannarxi alohida xarajatlari o'zgarishga ta'sirining bog'liq holda ular o'zgaruvchan va shartli doimiyga bo'ladi. Maxsulot tannarxi strukturasi deganda uning umumiy summasida alohida xarajatlar tarkibi va protsentdagi nisbati tushuniladi. Maxsulotning 1 so'm sarf bo'lgan xarajat to'liq tannarxining tovarlar maxsulotidan korxona ulgurji bahosi miqdoriga bo'lgan nisbati bilan aniqlanadi.

Tannarxi

$$X = \frac{\text{Maxsulot tannarxi pasayish ko'rsatkichi}}{\text{Tovar maxsulot miqdori}}$$

Tovar maxsulot miqdori

Maxsulot tannarxi pasayish ko'rsatkichi

$$X_t - X_r$$

$$\text{Pasayish tan.} = \frac{X_t - X_r}{X_t} * 100$$

$$X_t$$

Bunda X_t , X_r - Maxsulotning 1 so'miga sarf bo'lgan xarajatlar joriy va rejadagi davr

Boshlang'ich berilgan qiymatlar

Kalkulyatsiya stat'yalari	Reja	Joriy
1. Xom ashe va asosiy materiallar		

2. Texnologik ehtiyojlar uchun yordamchi materiallar		
3. Texnologik ehtiyojlar uchun yoqilg'i va energiya		
4. Asosiy ishchilarning asosiy va qo'shimcha ish haqi		
5. Ishlab chiqarishga tayyorlash va o'zlashtirish darajalari		
6. Jihozlarni saqlash va ularning foydali xarajatlari		
7. Tsex bo'yicha xarajatlar		
8. Umumiy fabrika xarajatlari		
9. Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari		
Xarajatlar to'la tannarxi yakuni rejadagi yilda maxsulotning 1 so'miga sarf bo'lgan xarajatlar joriy yilda maxsulotning 1 so'miga sarf bo'lgan xarajatlar		
Ulgurji narx tovar maxsulotning miqdori		

AMALIY MASHG'ULOT № 8 **MAVZU: TARMOQDA KAYD VA HISOBOT**

Moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, nafakat ularni yaratishda balki almashuv, taqsimot va iste'mol jarayonida ko'p sonli va har xil xo'jalik operatsiyalari bajarish zaruriyatini tug'diradi. Ishlab chiqarish, uning borishi haqida ma'lumotga ega bo'lish uchun uni kuzatish zarur. Bajariladigan xo'jalik operatsiyalarini qayd qilish, o'lchash va son ko'rsatkichlari bilan ifodalash kerak, ya'ni xo'jalik ucheti qaydi olib borish zarur.

Xo'jalik ucheti qaydi xo'jalikni nazorat qilish va boshqarish maqsadida xo'jalik operatsiyalarinè kuzatishlarni, o'lchashlarini, qayd qilishlarini, moddiy ishlab chiqarishni jarayonini miqdor va sifat jixatdan ifodalashni nazarda tutadi.

Xo'jalik qaydi ishlab chiqarish jarayonini miqdor jixatdan ifodalash uchun har xil o'lchov birikmalaridan foydalaniladi. Bular, natural, mehnat va pul birikmalaridir.

Natural ulchamlari - mehnat predmetlari - xom ashyo, materiallar, yoqilg'i hamda mashina dastgoxlar va boshqa mehnat vositalarining miqdori va xarajati haqida ma'lumot olish uchun qo'llaniladi. SHu maqsadda uzunlik o'lchami (metr, santimetr), og'irlik ulchami (kg, tonna), hajm o'lchami (metr, kub metr) dan foydalaniladi.

Pul o'lchovi xo'jalikdagi bir xil mablag' larni qo'yish va umumiy ma'lumot olish uchun qo'llaniladi. Pul o'lchovi yordamida xo'jalikdagi mablag' lar va ularning tashkil topish manbalari haqida umumlashgan ma'lumotlar olish, korxona xo'jalik faoliyati natijasini aniqlash,

ishlab chiqarishga sarflangan hamma xarajatlarni hisoblash, maxsulot tannarxini aniqlash mumkin.

Mehnat o'lchovi ma'lum maxsulotni ishlab chiqarish yoki boshqa biror ishni bajarish uchun xizmat qiladi. Mehnat o'lchoviga misol qilib kishi-kunni, kishi - soatni keltirish mumkin.

Turlicha xo'jalik jarayonlari va har xil xo'jalik vositalari qaydda o'z ifodasini topadi. Juda keng miqyosidagi bu jarayonlar va vositalar yaxlit holda xalq xo'jalik qaydini hosil qiladigan turli ko'rinishdagi xo'jalik qaydlarini paydo bo'lishiga imkon yaratadi. Bu qaydlar:

1. Operativ
2. Statistik
3. Buxgalteriya qaydlari (uchetlari) ga bo'linadi.

Operativ qayd ishlab chiqarishga joriy operativ raxbarlik qilish uchun xizmat qiladi, chunki xo'jalik operatsiyalarini jarayonining o'zida yoki amalga oshgach nazorat qilish imkoniga ega. Operativ qaydda birliklarining barcha turidan foydalaniladi. Qaydning bu turi korxonani operativ boshqarishdagi muhim xususiyati uning soddaligiga va tezligidir. Operativ qayd ma'lumotlari hamma vaqt ham rasmiylashtirilavermaydi, chunki telefonda og'zaki ham aytilishi mumkin. Korxonaning turli bo'limlari - reja va moliya, ta'minot va sotish kadrlar bo'limi va hokazo, barchasi operativ qayd olib boriladi. Bu qayd maxsulot ishlab chiqarishning me'yori ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, xom ashyo bilan ta'minlanganlik, maxsulot sotish va boshqa jarayonlarni harakterlaydi.

Statistik kayd ham yagona xalq xo'jaligi qaydida muhim o'rnini tutadi. Statistika ommaviy ijtimoiy- iqtisodiy hodisalarni ham miqdor ham sifat jixatdan o'rganadi. Xalq xo'jaligi uning tarmoqlari rivojlanish jarayonini o'rganish, korxonalarda va tashkilotlarda bo'ladigan ommaviy hodisalarni kuzatish uchun statistika qo'llaniladi. Bunday hodisalar qatoriga ishlab chiqarish hajmi, ish haqi dinamikasi, ish vaqtidan foydalanish, mehnat unumdorligi darajasi va o'sish kabi ko'rsatkichlar kiradi. Statistika ommaviy xodisalarni o'rganishda chegaralanib qolmasdan, ularning rivojlanish konuniyatlarini ham belgilaydi, operativ va buxgalteriya qaydlari ma'lumotlaridan xabar (svodka) va guruxlash, o'rtacha miqdorlar, nisbiy sonlar, indekslar holida keng foydalaniladi.

Buxgalteriya qaydi har bir korxona xo'jalik faoliyatini joriy va natijaviy ma'lumotlar olish maqsadida uzluksiz va almashuvchan ko'zatish va nazorat qilishdir. U yoki bu hodisa tanlab olinadigan statistik va operativ qaydlardan farqli buxgalteriya qaydi yaxlit hisoblanadi. Bu qayd barcha xo'jalik operatsiyalarining qat'iy xujjatlashtirilishiga va pul ko'rinishida ifodalashga asoslangan. Buxgalteriya qaydi orqali xo'jalikda mavjud bo'lgan moddiy boyliklar va pul vositalari, hisob-kitoblar holati, xom-ashyo, material, mashina va uskunalar sotib olish haqidagi,

maxsulot ishlab chiqarish xarajatlari va ularni sotish, korxona xo'jalik faoliyati moliyaviy natijalari haqidagi ma'lumotlarni bilish mumkin.

Hisobot jamiyatda muhim xalq xo'jalik ahamiyatiga ega. U davlatni boshqarish, xo'jalik yuritish va nazorat uchun zarur. Hisobot ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi muhim vositalardan biri. SHuning uchun ham hisobotni tashkil qilishga katta ahamiyat beriladi.

Hisobotning xalq xo'jaligidagi ahamiyati unga bir qator qat'iy talablar ko'yadi: hisobot qat'iy va ob'ektiv ma'lumotlardan tuzilishi kerak, oddiy va qisqa bo'ladi, mazmuniga ko'ra ishonchli bo'ladi. Bu hisobot rejalashtirish, boshqarish va nazorat uchun zarur bo'lgan ko'rsatkichlarni o'z ichiga olish va ishninã real holatini ifodalash kerakligini bildiradi. SHu munosabatlar bilan hisobotni takomillashtirish, soddalashtirish va qisqartirish maqsadida doimiy ravishda qayta ko'rib beriladi.

Hozir respublikamizda davlat hisobotining ikki shakli mavjud. Korxonalarning barcha hisoboti statistika va buxgalteriya hisobotiga bo'linadi. Hisobotning ikki shakli o'zaro bir bironini to'ldiradi.

Statistik hisobot - korxonalar ishi haqidagi maxsus formalarga yozilgan, yuqori tashkilot va davlat statistika organlariga taqdim qilinadigan statistik ma'lumotlar yig'indisidan iborat bo'ladi.

Buxgalteriya hisobi - bu xo'jalik mablag' lari va ularning manbalari, xo'jalik jarayonlari va ularning natijalari haqidagi ma'lumotlar yig'indisidir.

Buxgalteriyaning barcha hisoboti mazmuniga ko'ra tipik va maxsus hisobotga bo'linadi.

Tipik hisobot barcha korxonalar uchun umumiy bo'lgan ko'rsatkichlarni aks ettiradi. Masalan, № 3 forma bo'yicha hisobot "Ustav fondi harakati" ni xalq xo'jaligining barcha tarmoqlaridagi korxonalar topshiradilar.

Maxsus hisobot xalq xo'jaligining alohida tarmoqlari xususiyatlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar yigindisidan iborat bo'ladi. Masalan № 1 forma bo'yicha hisobot "Sanoat korxonalari asosiy faoliyati bo'yicha balans".

Topshiriq muddatiga ko'ra buxgalteriya hisoboti davriy va yillik hisobotga bo'linadi. Davriy hisobotga oylik va kvartal hisobotlari kiradi. Yillik hisobot yil oxirida korxona faoliyatining barcha yo'nalishlari bo'yicha to'ziladi va iqtisodiy taxlil uchun manba hisoblanadi.

Masala № 1

Korxona buxgalteriya balansi berilgan (jadval)

Aktiv			Passiv		
№	Xo'jalik mablag' lari ularning joylanishi	Summa	№	Xo'jalik mablag' lari ularning joylanishi	Summa
1.	Asosiy vositalar	800000	1.	Kapital	850000
2.	Kassa	50000	2.	Banklarning qisqa muddatli krediti	650000

3.	Hisob - kitob	300000			
4.	Zapas va muomaladagi pullar	350000			
	Balans	1500000		Balans	1500000

Aytaylik, ishchi va xizmatchilarga ish haqi to'lash uchun korxonaning bankdagi hisob-kitob schetidan kassaga 80000 so'm o'tkazildi. SHu operatsiyadan keyingi korxona buxgalteriya balansini to'zing.

Masala № 2

Korxona buxgalteriya balansi quyidagicha (jadval)

Aktiv			Passiv		
№	Xo'jalik mablag' lari ularning joylanishi	Summa	№	Xo'jalik mablag' lari ularning joylanishi	Summa
1.	Asosiy vositalar	1200000	1.	Kapital	2500000
2.	Tugallanmagan ishlab chiqarish	500000	2.	Banklarning qisqa muddatli kreditlari	800000
3.	Ishlab chiqarish zaxiralari	1800000	3.	Banklarning uzoq muddatli kreditlari	1000000
4.	Hisob kitob varaqasi	800000			
	Balans	4300000		Balans	4300000

Aytaylik, asosiy ishlab chiqarishga korxona ta'minot bo'limining omboridan 80000 so'mga xom - ashyo xarajat qildi. Bu operatsiya natijasida korxona buxgalteriya balansi qanday o'zgaradi ?

Masala № 3

Korxona balansi quyidagicha bo'lgan (jadval)

Aktiv			Passiv		
№	Xo'jalik mablag' lari ularning joylanishi	Summa	№	Xo'jalik mablag' lari ularning joylanishi	Summa
1.	Asosiy vositalar	2000000	1.	Kapital	4500000
2.	Tugallanmagan ishlab chiqarish	1500000	2.	Banklarning uzoq muddatli kreditlari	2000000
3.	Ishlab chiqarish zaxiralari	2000000			
4.	Hisob - kitobdagi erkin pul mablag' lari	1000000			
	Balans	6500000		Balans	6500000

Aytaylik, korxona egalari bankdan 1500000 so'm miqdorda qisqa muddatli kredit olib, uning 500000 so'miga ishlab chiqarish uchun zarur xom-ashyolar sotib oldi. Endi buxgalteriya balansi qanday bo'ladi ?

Masala № 4

Korxona buxgalteriya balansi quyidagicha (jadval)

Aktiv			Passiv		
№	Xo'jalik mablag' lari	Summa	№	Xo'jalik mablag' lari	Summa

	ularning joylanishi			ularning joylanishi	
1.	Asosiy vositalar	2000000	1.	Kapital	6000000
2.	Kassa	80000	2.	Banklarning kiska muddatli krediti	2500000
3.	Hisob-kitob varakasi	5700000	3.	Banklarning o'zok muddatli krediti	1000000
4.	Zaxiralar	1000000			
	Balans	9500000		Balans	9500000

Aytaylik, korxona egalari korxonaning hisob kitob varaqasidan:

- 1) 800000 so'mni xodimlarga xizmat haqi to'lash uchun kassaga o'tkazdi;
- 2) 600000 so'mni ishlab chiqarishga zarur xom ashyolar uchun sarflanadi. Bu operatsiyalardan keyingi korxona buxgalteriya balansini tuzing.

Masala № 5

Har bir raqam ostidagi tushunchaga uning ma'nosi yashiringan harfni toping.

1. Debet

A) Davlat tomonidan korxona va xo'jaliklarga muayyan maxsulot turini tayyorlash, ishlab chiqarish, noishlab chiqarish va ilmiy tadqiqot harakteridagi ishlarni bajarish bo'yicha beriladigan topshiriq.

2. Buxgalteriya balansi

B) Ikki yoki undan ortiq tomonlar o'rtasidagi kelishuv. Davlat bilan korxona, tashkilot bilan xodim, korxona bilan korxona va hokazo. Bunda maxsulot hamda xizmatlar pulga yoki bo'lmasa o'zaro ayirboshlanadi.

3. Davlat buyurtmasi

V) Xo'jalik faoliyati jarayonida korxonada mablag'larning aylanishi va mulklarning harakatini ifodalovchi ma'lumotlar majmuasi.

4. Passiv

G) Korxona faoliyatining pul hisobidagi ko'rsatkichlar tizimi. Hisobot sanasida mablag'larning sarflanishi, manbai va maqsadini ta'riflovchi, jamlovchi jadvalda aks ettiriladi. Iki kismdan iborat: chap tomoni passiv, ung tomoni passiv. Aktiv va passiv natijalari bir xil bo'lishi shart.

5. Buxgalteriya hisobi

- D) 1) buxgalteriya balansining kismi bo'lib, unda hisobot sanasida korxona mulki va mablag'larining puldagi ifodasi, ularning tarkibi va taksimoti ko'rsatiladi;
- 2) korxona mulki yoki mablag'lari: binolar, mashinalar, naqd pullar.

6. Schyot sal'dosi

E) 1) buxgalteriya hisobining kismi (ung) bo'lib, unda korxona mablag' larining manbalari va ularning qanday maqsadlarga muljallanganligi kursatiladi.

2) korxona barcha qarz va majburiyatlari majmuasi.

7. Ikkiyoqlama (qo'shaloq) yozuv

J) Yuridik va jismoni shaxslar bilan o'zaro xo'jalik munosabatlar natijasida to'lashga yoki olishga tegishli bo'lgan pullar. Aktivdagi debet hisobga olinadigan summaning o'sishini, passivdagi esa kamayishini bildiradi.

8. Bitim

Z) Pul mablag'larning muayyan bir yo'nalish bo'yicha harakatini ifodalovchi (bayon qiluvchi) buxgalteriya hisobining yozuvlar majmuasi. Unda buxgalteriya balansining bir yoki bir-birlariga yaqin bir nechta moddalari birlashtirilib, hisob-kitob qilinadi. U jadval ko'rinishda bo'lib, ikki qismga bo'linadi: chap tomoni debet, o'ng tomoni esa kredit.

9. Aktiv

I) Aktiv schyotlardagi debet bilan kredit va passiv schyotlardagi kredit bilan debet o'rtasidagi farq (yoki qoldiq).

10. Schyot

K) Buxgalteriya hisobida schetlar tuzishning asosiy qoidasi bo'lib, bunda korxona har bir xo'jalik operatsiyasi muayyan vaqtda va o'zaro aloqador holda bir xil pul miqdorida birdaniga ikkita schyotda: birinchisining debet va ikkinchisining kredit qismida aks ettiriladi.

TESTLAR

1. Operativ qayd -

A) Ishlab chiqarishga joriy operativ raxbarlik qilish uchun xizmat qiladi.

B) Ommaviy ijtimoiy- iqtisodiy hodisalarni ham miqdor ham sifat jixatdan o'rganadi.

V) Har bir korxona xo'jalik faoliyatini joriy va natijaviy ma'lumotlar olish maqsadida uzluksiz va almashuvchan kuzatish va nazorat qilish.

G) Noto'g'ri javob yo'q.

2. Buxgalteriya qaydi -

A) Ommaviy ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarni ham miqdor ham sifat jixatdan o'rganadi.

B) Ishlab chiqarishga joriy operativ raxbarlik qilish uchun xizmat qiladi.

V) Har bir korxona xo'jalik faoliyatini joriy va natijaviy ma'lumotlar olish maqsadida uzluksiz va almashuvchan kuzatish va nazorat qilish.

G) Noto'g'ri javob yo'q.

3. Hisobot nima uchun zarur:

- A) Davlatni boshqarish, xo'jalik yuritish va nazorat uchun
- B) rejalashtirish va tashkil etish uchun
- V) marketing xizmati uchun
- G) Noto'g'ri javob yo'q.

4. Topshirish muddatiga ko'ra buxgalteriya hisoboti qanday bo'linadi:

- A) Oylik, kvartal va yillik hisobot
- B) Kunlik, xaftalik va kvartal
- V) Kunlik, choralik va yillik hisobot
- G) Noto'g'ri javob yo'q.

AMALIY MASHG'ULOT № 9 **MAVZU: TARMOQDA IQTISODIY TAXLIL**

Iqtisodiy taxlil - korxona xo'jalik faoliyatini ob'ektiv baholash, rezervlarni aniqlash va ularni ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga joriy qilish uchun o'zaro bog'liq kompleks tadqiqotlar usulidir.

Korxona faoliyatini har tomonlama taxlil qilishda analitik ko'rsatkichlarni qayta ishlashning bir necha texnik usullari mavjud. Taqqoslash, zanjirli o'ringa qo'yish, tanlash, guruxlash, o'rtacha va nisbiy miqdorlarni qo'llash, ko'rsatkichlarning balans bog'liqligi, qoldiq hisob usullari shular jumlasidandir.

Taqqoslash - rejani bajarilishini baholash uchun qo'llaniladigan usul. Amaldagi ko'rsatkichlar reja ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi.

Zanjirli uringa qo'yish usuli - amaldagi reja ko'rsatkichlarning rejadan ogishiga ta'sir qiluvchi har bir omilni miqdor jixatdan baholash, uchun foydalaniladi.

Aloxida omillarni tanlab o'rganishi rezervlarini aniqlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, anketa o'tkazish bilan iqtisodiy hodisalarni taxlil qilish.

Omillarning aloxida belgilarini o'rganishda guruxlash usulidan foydalaniladi. Masalan, uskunar aloxida guruxlarning o'rtacha ish haqlarini baholashda shu usul qo'llaniladi va hokazo.

Iqtisodiy taxlil turlari birinchi galda uni o'tkazish davriyligi bilan bog'liq. SHunga ko'ra hozirgi vaqtda boshlang'ich, operativ va yakuniy taxlil farqlanadi. Taxlilning bu turlari bozor iqtisodi sharoitida o'z mohiyatini saqlaydi.

Boshlang'ich taxlil ishlab chiqarishning borishi, uning natijalarini baholashning, reja ko'rsatkichlarini izohlashning ilmiy istiqbolini belgilaydi.

Operativ taxlil – xo'jalik operatsiyalari bajarilayotgan vaqtda, ya'ni maxsulot ishlab chiqarilib, sotilayotgan vaqtda amalga oshiriladi. Zarur hisobot ma'lumotlari etishmagan paytda

operativ taxlil masalan, xom ashyo umumiy sarfi, uskunalardan foydalanishning ta'sirini baholaydi.

Yakuniy taxlil - biror voqea hodisa yoki ma'lum davrdagi xo'jalik operatsiyalari tugagandan keyin o'tkaziladi. Bu holda taxlil xulosalari to'laroq bo'ladi.

Masala № 1

Jadvalda berilgan ko'rsatkichlar bo'yicha maxsulot tannarxini taxlil qiling.

Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2005 y.	2006 y.	2007 yil		2007 yil 2005 yilga nisbatan farqi
				reja	amal	
To'la tannarx	M.s.	128740	254978	496800	491488	362748
Tovar maxsuloti	M.s.	144165	288085	594971	595061	450896
Bir so'mlik tovar maxsulotiga ketgan xarajat	tiyin	89,3	88,4	83,5	82,6	-6,7

Masala № 2

Jadvaldagi ko'rsatkichlarga asosan maxsulot rentabelligini taxlil qiling.

Ko'rsatkichlar	Reja	Amalda	Rejadan farq
1. Balans foyda m.s.	99041,09	104112	+5070,91
2. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining yillik o'rtacha qiymati. M.s.	92820	94122	+1302
3. Normallashtirilgan aylanma mablag'larining o'rtacha qiymati, m.s.	280919,96	337878	+56958,04
4. Ai IF va NAMning jami o'rtacha qiymati	373739,96	432000	+58260,04
5. Umumiy rentabellik, %	26,5	24,1	- 2,4

TESTLAR

1. Quyida keltirilganlarning qaysi biri xo'jalik faoliyatini taxlil qilishning asosiy printsipligiga kiradi:

- A) Taxlil natijalari asosida ilg'or tajribalarni keng yoyish
- B) Korxonalarning xo'jalik faoliyatini taxlil qilishda taqqoslash usulining ichki xo'jalik rezervlarini aniqlashdagi ahamiyati.
- V) Korxonalarni boshqarishda hisob va hisobotning hal qiluvchi roli va uning taxlilda asosiy axborot manbai ekanligi.
- G) Noto'g'ri javob yo'q.

2. Quyida keltirilgan qaysi iqtisodiy dastaklardan samarali foydalanishda iqtisodiy taxlil muhim rol' o'ynaydi:

- A) Reja, baho, foyda, moliya va kredit
- B) Tannarx, rentabellik, pul
- V) Bozor, talab, taklif
- G) Noto'g'ri javob yo'q.

3. Taxlilning axborot manbalariga nimalar kiradi:

- A) Reja, hisob, hisobdan tashqari ma'lumotlar
- B) Baho, rentabellik, foyda
- V) Talab, taklif, kredit
- G) Noto'g'ri javob yo'q.

4. Quyida ko'rsatilganlardan qaysi biri maxsulotni ishlab chiqarish va sotish taxlilining asosiy vazifasiga kiradi:

- A) Korxonalar maxsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va o'zgarishining xajmi, tarkibi, nomenklaturasi, assortimenti, sifati bo'yicha baho berish.
- B) Maxsulot ishlab chiqarish jarayonida material va mehnat resurslaridan to'g'ri foydalanish ustidan nazorat olib borish.
- V) Maxsulot ayrim turlarining xaqiqiy tannarxini reja tannarxi bilan solishtirish va farqlarini belgilash.
- G) Noto'g'ri javob yo'q.

5. Boshlang'ich taxlil -

- A) Ishlab chiqarishning borishini, uning natijalarini baholashning, reja ko'rsatkichlarini izohlashning ilmiy istiqbolini belgilaydi.
- B) xo'jalik operatsiyalari bajarilayotgan vaqtda, ya'ni maxsulot ishlab chiqarilib, sotilayotgan vaqtda amalga oshiriladi.
- V) Biror voqea, hodisa yoki ma'lum davrdagi xo'jalik operatsiyalari tugagandan so'ng o'tkaziladi.
- G) Noto'g'ri javob yo'q.

6. Yakuniy taxlil -

- A) Xo'jalik operatsiyalari bajarilayotgan vaqtda, ya'ni maxsulot ishlab chiqarilib, sotilayotgan vaqtda amalga oshiriladi.

B) Ishlab chiqarishning borishini, uning natijalarini baholashning, reja ko'rsatkichlarini izoxlashning ilmiy istiqbolini belgilaydi.

V) Biror voqea, hodisa yoki ma'lum davrdagi xo'jalik operatsiyalari tugagandan so'ng o'tkaziladi.

G) Noto'g'ri javob yo'q.

AMALIY MASHG'ULOT № 10 **MAVZU: TARMOQDA AUDIT**

Audit (lotinchada "eshituvchi", "tergovchi", inglizchada "taftishchi", "tekshiruvchi") bozor munosabatlaridan kelib chiqqan bo'lib xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining ma'lum mezonlarga mosligini tekshirish orqali baholash va xolisona xulosalar berishdir.

Audit to'g'risidagi tushunchalar va uning vazifalarini ijodiy taxlil natijasida auditning mazmunini quyidagicha belgilanadi:

- audit orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyatiga xolisona xulosalar beriladi;
- audit bu – xo'jalik yurituvchi sub'ekt faoliyatining qabul qilingan mezonlarga muvofiqligini tekshirishdir;
- audit - moliyaviy hisobotning joriy hisob ma'lumotlariga monandligini tekshirishdir;
- korxona faoliyatining qonun-qoidalariga mosligi audit orqali aniqlanadi;
- audit orqali korxona faoliyati ekspertiza va taxlil qilinadi;
- audit orqali mijozlarga konsalting xizmatlari ko'rsatiladi.

Audit - bu muayyan vakolatlar berilgan shaxslar, ya'ni auditorlar tomonidan xo'jalik yuritayotgan sub'ektlar faoliyatlarining Respublikada qabul qilingan konun-koidalarga muvofiqligini tekshirish yo'li bilan baholash va xolisona xulosalar berishdir. Auditorlik faoliyati bundan tashqari ya'ni korxonalarni ochish, moliya - kredit, hisob -kitob ishlarini yuritish bo'yicha maslahatlar berish ("konsalting" xizmatini ko'rsatish) mutaxassislar tayyorlash, ularning malakasini oshirish, audit sohasida o'quv-uslubiy tavsiyalar ishlab chiqarish kabi vazifalarni ham o'z ichiga oladi.

Masala № 1

Agar korxonada sof aylanma mablag' lar 2391 m.so'm, taksimlangan foyda 648 m.so'm, balans foyda 1703 m.so'm, sof tushum 31158 m.so'm, oddiy va imtiyozli aktsiyalarning bozor narxi 3000 m.so'm, balans bo'yicha qarzga olingan mablag' lar 3177 m.so'm bo'lsa korxonaning bankrotlik ehtimoli hisoblansin.

TESTLAR

1. Auditorlik tekshiruvi natijalari kimga taqdim etiladi.

- A) Yuqori tashkilotga
- B) Ta'sischiga

- V) Buyurtmachiga
- G) Soliq organlariga
- D) Boshqa nazorat organlariga

2. Auditorlik hisoboti va xulosasini kim tasdiqlaydi ?

- A) auditor
- B) Buyurtmachi
- V) Auditorlik firmasi
- G) Korxona raxbari
- D) Barcha javoblar to'g'ri

3. Audit qaysi nazorat turiga kiradi ?

- A) Ma'muriy nazoratga
- B) Tashqi nazoratga
- V) Moliyaviy nazoratga
- G) Ichki nazoratga
- D) Tashkiliy nazoratga

4. Auditorlik tashkilotlari kimga buysunadi ?

- A) Moliya organlariga
- B) Yuqori tashkilotga
- V) Soliq inspeksiyasiga
- G) Ma'muriy organlarga
- D) Yuridik shaxs sifatida o'zlari mustaqil faoliyat yuritadilar.

5. Auditorlik faoliyati bilan kimlar shug'ullanishi mumkin ?

- A) Bank xodimlari
- B) Soliq inspeksiyasi xodimlari
- V) Huquqiy sertifikati bo'lgan mutaxassislar
- G) Buxgalter-iqtisodchilar
- D) Barcha oliy ma'lumotli mutaxassislar.

6. Korxonada audit o'tkazish nimadan boshlanadi ?

- A) Buxgalteriya balansini tekshirishdan
- B) Buxgalteriya hisobi schetlaridan tekshirishdan
- V) Korxona faoliyati bilan tanishishdan
- G) Inventarizatsiya o'tkazishdan
- D) Taftish o'tkazishdan

ADABIYOTLAR

1. SH.X.Nosirov "Sanoat ishlab chikarish ekonomikasi, tashkil etilishi va shakllantirish. Toshkent "o'qituvchi" 1989 yil.
2. A.O'lmasov "Iqtisodiyot asoslari" Toshkent "Mexnat"1997y
3. Yu Dodoboev "Korxona iqtisodi" Toshkent
4. I.A.Karimov "Uzbekiston XX1 asrga intilmoqda "Toshkent "Uzbekiston" 1999 yil
5. Hamroqulov O.M. va boshqalar "Texnologiya mashinasozligi sanoati iqtisodi" Buxoro Muallif 1994 y
6. M.V.Karimova "Tikuvchilik sanoati ekonomikasi, ishlab chiqarishni tashkil etish, rejalashtirish" T.O'qituvchi 1989 yil
7. S.G'ulomov "Menejment va biznes asoslari" T."Mehnat" 1997y
8. I.A.Arens, Dj K.Lobbek "Audit" Moskva "Finansi i statistika" 1995g
9. M.Xakimova "Makroiqtisodiyot" Toshkent mexnat 1997y
10. Yo.Abdullaev,T.Boboqulov "Kredit" Mexnat 1997y
11. I.Sariqov,M.Mamatov "Iqtisodiyot va biznes asoslari " "SHarq" nashriyot matbaa kontsernning bosh taxririylati Toshkent 1997y.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining korxonalar xo'jalik faoliyatini va kichik va o'rta biznesni boshqarish tartibi.
13. Jurnallar "Iqtisod va hisobot", 1998 yil 3 son 1997 yil 6 son "Pul kredit va bozor" 1998 yil 5,10,12 sonlar , 1996y 6,7 sonlar 2000 y 1,2 sonlar.

